

OYBEK ASARLARI HAQIDA

Halimova Sevinch Rustam qizi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15104087>

Annotatsiya. Har bir taniqli ijodkorlarning yaratgan asariga qarab baho beriladi. Bu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Oybekning asarlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oybek, she'riy, asar, adabiyot.

ABOUT THE WORKS OF OYBEK

Abstract. Each famous artist is evaluated based on his work. This article provides information about the works of the People's Writer of Uzbekistan Oybek.

Keywords: Oybek, poetry, work, literature.

О ТВОРЧЕСТВЕ ОЙБЕКА

Аннотация. Каждого известного художника оценивают по его работам. В статье дана информация о творчестве народного писателя Узбекистана Ойбека.

Ключевые слова: Ойбек, поэзия, произведение, литература.

Akademik yozuvchi, o'z davrining yetuk munaqqidi Oybekning ilmiy merosi g'oyat va rang-barangdir. Oybek ijodida adabiy tanqidning taqriz, adabiy- tanqidiy maqola va uning obzor, muammoli va bahs xarakteridagi turlari, portret-maqola, ilmiy-biografik mazmundagi asarlar, yirik monografik tadqiqot kabi janrlari ko'plab uchraydi. Garchand Oybekning adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganish 70- 80-yillardan (O.Sharafiddinov, B.Nazarov) boshlangan bo'lsa-da, uning adabiy-tanqidiy merosini janr va shakl nuqtai nazaridan o'rganish bugungi kunda oybekshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bu esa ulkan adibning shaxs va ijodkor sifatidagi bir butun qiyofasini tadqiq etishda juda zarurligini namoyon etadi.¹

Sho'ro davri o'zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yili Toshkent shahrida bo'zchi oilasida dunyoga keldi.

Oldin o'rta maktabda, 1922—1925 yillarda esa Toshkent pedtexnikumida ta'lim oldi.

¹ Shoira Axmedova. PORTRET- MAQOLA JANRI RIVOJI (Oybek ijodi misolida). JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume-53_Issue-2_May 2024.

Soʻngra Oʻrta Osiyo Davlat dorilfununida ijtimoiy fanlar fakultetida oʻqishni davom ettirdi. Leningraddagi Plexanov nomidagi Xalq xoʻjaligi institutida tahsil koʻrdi. 1930-yili Oʻrta Osiyo Davlat dorilfununini tugatib, Oliy maktablarda siyosiy iqtisodan dars beradi.

Oybek adabiyotga 1926-yili chop etilgan «Tuygʻular» sheʻriy toʻplami bilan kirib keladi. Shoirning «Dilbar davr qizi» (1931), «Oʻch» (1932), «Baxtigul va Sogʻindiq» (1933), «Temirchi Joʻra» (1933) poemalari oʻz davrining sheʻriy solnomalaridandir. Uning yigirmadan ortiq dostonlari boʻlib, tarixiy, zamonaviy va xorijiy mavzularda yaratilgan.

Oybek adabiyotga 1926-yili chop etilgan “Tuygʻular” sheʻriy toʻplami bilan kirib kelgan.

Shoirning “Dilbar - davr qizi” (1931), “Oʻch” (1932), “Baxtigul va Sogʻindik” (1933), “Temirchi Joʻra”(1933) dostonlari oʻz davrining eng goʻzal sheʻriy solnomalaridir. Oybek tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratgan. Oybek sheʻriyati nihoyatda goʻzal boʻlib, oʻzining sodda, ravon va ifodali tilda, boy va rang-barang tasviriy vositalarda yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, “Quyosh qushigʻi” sheʻrida:

Boshimda olmaning xushboʻy oq guli,
Ulugʻ yerni quchib yotibman uygʻoq.
Qulochim yetmasa qalbim yetkusi,
Insonning qalbiga quyosh jinchiroq.²
Yoki:

Yuraman, toshadi sevinchim.

Bu sevinch qayerdan, bilmayman.

Kechaning ogʻushi latif, jim...

Yulduzlar chamani gullagan.³

Oʻzbek xalqining 1916-yilgi milliy ozodlik qoʻzgʻoloni yozuvchining «Qutlugʻ qon» (1940) romanida zoʻr mahorat bilan realistik ifodalangan. Adibning ikkinchi yirik tarixiy asari «Navoiy» (1944) romanidir. Oybek bu romanda oʻzbek adabiyotida birinchi boʻlib, ulugʻ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy obrazini yaratdi. Uning «Oltin vodiyan shabadalar» (1949) asarida xalqimizning urushdan soʻnggi davr yaratuvchilik mehnati, «Quyosh qoraymas» (1958) romanida Ulugʻ Vatan urushida erishilgan gʻalaba aks ettirilgan. Adibning «Ulugʻ yoʻl» (1967) asari esa

² <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/men-sevgan-oybek.html>

³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/men-sevgan-oybek.html>

«Qutlug‘ qon» romanining mantiqiy davomi bo‘lib, unda yozuvchi milliy ongning shakllanishini mahorat bilan ko‘rsata olgan.

Oybek 40-yillar oxiri — 50-yillar boshlarida «Qizlar» (1947) dostonidan tashqari, «Hamza» (1948), «Haqgo‘ylar» (1952) dostonlarini yaratdi. 60-yillarda shaxsga sig‘inish fojialari fosh etilib, sobiq sovet mamlakatida «xrushchyovcha» harorat jilvalari ko‘ringanda, Oybek xastaligiga qaramay, yana «sof lirika»ning go‘zal namunalarini taqdim etadi, Xirosima fojiasiga bag‘ishlangan «Davrim jarohati» (1952), «Guli va Navoiy» (1968) dostonlarini yozish bilan birga Amir Temur va Bobur haqidagi lirik dostonlarni yozishga kirishadi. Shoir o‘zining bu asarlari bilan 60-yillar o‘zbek she‘riyatida yangi badiiy tafakkurning boshlanishi va qaror topishiga muhim hissa qo‘shadi.⁴

Oybek 1949-yilda Pokistonga sayohat qildi. Adib Pokiston hayotini, fikr va tuyg‘ularini, kurash va intilishlarini «Pokiston xotiralari» ocherklarida, qator she‘rlarida, «Zafar va Zahro», «Haqgo‘ylar» dostonlarida, nihoyat «Nur qidirib» povestida tasvirladi.⁵

Adibning avtobiografik povesti «Bolalik» 1963-yilda yaratildi. Qissaning bosh qahramoni yosh Muso ya‘ni Oybekning o‘zidir.

Oybek iste‘dodli shoir, yirik nosir bo‘libgina qolmay, mashhur olim, davlat va jamoat arbobi, publitsist tanqidchi va tarjimon hamdir. O‘zbek kitobxonni Pushkinning «Yevgeniy Onegin», Lermontovning «Maskarad» asarini, antik Rim adabiyoti namunalarini, arman eposi «Sosunli Dovud»ni Oybek tarjimasida o‘qishga muyassar bo‘lgan.

Oybek 1943-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a‘ziligiga saylandi va 1950-yilgacha Akademiyada ijtimoiy fanlar bo‘limining raisi lavozimida ishladi. U yuqori malakali filologlar tayyorlashga katta hissa qo‘shgan ustozdir.

Ulkan adib «Navoiy» romani uchun Ittifoq Davlat mukofoti laureati bo‘ldi, bir necha orden va medallar bilan taqdirlandi. U O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori ham bo‘lgan. Yozuvchining asarlari o‘zbek adabiyotining jahon aro shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Oybekning o‘lmas asarlari ma‘naviy xazinamizdan mangu o‘rin oldi va umumxalq mulki bo‘lib qoldi. Uning eng yaxshi asarlari jahon adabiyoti xazinasiga ham kirgan. Oybek 1968-yil 1-iyulda 63 yoshida vafot etdi. Vafotidan so‘ng uning 20 jildlik to‘la asarlari majmuasi nashr etildi

⁴ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-o/oybek-uz/>

⁵ <https://sputniknews.uz/20231020/oybek-biografiya-40171629.html>

Xulosaga ko'ra, Oybek ijodiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. Adib umri davomida ko'plab nasriy asarlar yaratdi. Uning «Qutlug' qon» va «Navoiy» romanlari o'zbek adabiyotidagi badiiy jihatdan eng yuksak asarlardan sanaladi.

Oybek she'riyatda «ko'ngil lirikasi»ni yaratgan shoirdir. Uning «Chimyon daftari» turkumiga kirgan yurt tabiatining fusunkor tarovati va betakror ranglarini o'ziga singdirgan she'rlari o'zbek lirikasining shoh namunalariga aylangan.

Shoir bu she'rlari bilan o'zbek she'riyatiga oybekona nafosatni olib kirdi.

REFERENCES

1. Shoiraxmedova. PORTRET- MAQOLA JANRI RIVOJI (Oybek ijodi misolida). JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume–53_Issue-2_May 2024.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/men-sevgan-oybek.html>
3. <https://sputniknews.uz/20231020/oybek-biografiya-40171629.html>
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-o/oybek-uz/>